

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA “KONSEPT” MASALASI TADQIQI VA TAHLILI

Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
Tillar va maktabgacha ta'lim kaferdrasi
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Kognitiv tilshunoslik sohasi esa konsept tushunchasiga diqqat-e'tiborinini kuchaytirdi. Konseptni ahglash “tushuncha” va “ma'no”ning farqli jihatlari mavjudligini ko'rsatdi. Ma'limki, konsept tushunchasi tilshunoslikka S. Askoldov tomonidan kiritilgani, olim bu tushunchaga turli millat vakillarining muloqotiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan kommunikativ jarayon sifatida baho berishi, uni kognitiv va badiiy turga ajratishi bilan konsept tushunchasining tadqiqiga yo'l ochib berdi.

Rus tilshunosligida konsept atamasi tadqiqi yuzasidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, Yu.S.Stepanov, V.Z.Demyankov, S.G.Vorkachev, D.S. Lixachev, Ye.S.Kubryakova, G.G.Slishkin, V.I. Karasik, Sergiyenko N.A., Shalgina Ye.A. Malchakitova N. Yu kabi olimlarning tadqiqotlari shular jumlasidandir.

O'zbek tilshunosligida ham konsept mavzusi tadqiqot obyektiga aylandi, Sh. S. Safarov, Sh. Usmonova, T.K.Mardiyev, N. S.Sayidirahimova, I.Tursunov kabi tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: konsept, ma'no, so'z, kognitiv tilshunoslik, antroposentrik yo'nalish, shaxs omili, etnik va milliy madaniyat, konseptual shartlanish.

Аннотация: Развитие когнитивной лингвистики привело к необходимости уделять больше внимания понятию концепт, понимать его, различать термины «концепт», «концепт» и «значение». Известно, что концепт был введен в языкознание С. Аскольдовым, ученый оценил этот концепт как коммуникативный процесс, способный вызвать общение между представителями разных национальностей, и разделил его на когнитивный и художественный типы, что открыло путь к исследованию понятия.

В отечественном языкознании проведено несколько исследований по изучению терминоконцепта, в том числе Ю.С. Степанова, В.З. Демьянкова, С.Г. Воркачева, Д.С. Лихачев, Е.С. Кубрякова, Г.Г. Слышкин, В.И. Карасик, Сергиенко Н.А., Шалгина Е.А. Среди них исследования таких ученых, как Мальчикитова Н.Ю.

В узбекском языкознании объектом исследования также стал предмет концепции, Ш. S. Сафаров, Ш. Усманова, Т.К.Мардиев, Н. S.Сайдирахимова. К ним относятся научные взгляды таких ученых-лингвистов, как Турсунов.

Ключевые слова: понятие, значение, слово, когнитивная лингвистика, антропоцентрическая ориентация, личностный фактор, этническая и национальная культура, концептуальная обусловленность.

Annotation: The development of cognitive linguistics has led to the need to pay more attention to the concept of concept, to understand and distinguish between the terms "concept" and "concept". It is known that the concept was introduced into linguistics by S. Askold, the scientist assessed this concept as a communicative process capable of causing communication between representatives of different nationalities, and divided it into cognitive and artistic types, which opened the way to the study of the concept.

Several studies have been conducted in Russian linguistics on the study of terminology, including such scientists as Y.S. Stepanova, V.Z. Demyankova, S.G. Vorkacheva, D.S. Likhachev, E.S. Kubryakova, G.G. Slyshkin, V.I. Karasik, N.A. Sergienko, E.A. Shalgina

In Uzbek linguistics, the topic of the concept has also become the object of research by some linguists: Sh. S. Safarov, Sh. The views of such scientists as Usmonova, T. K. Mardiev, N. S. Saidirakhimova, I. Tursunov are analyzed.

Keywords: concept, meaning, word, cognitive linguistics, anthropocentric orientation, personality factor, ethnic and national culture, conceptual conditioning.

Tilshunoslikda antroposentrik yo'nalishining pragmalingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, neyrolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika va diskurs kabi sohalarida inson tafakkuri bilan bog'liq til hodisalarini o'rganish tadqiqot markaziga keldi.

Kognitiv tilshunoslik sohasi esa konsept tushunchasiga diqqat-e'tiborini qaratdi. Konseptni anglash maqsadida olib borilgan izlanishlar "tushuncha" va "ma'no"ning farqli jihatlarini mavjudligini ko'rsatdi

Dunyo tilshunosligida konsept tushunchasi birmuncha keng tadqiq etilgan. Bu tushunchani tilshunoslikka, xususan, rus lingvistikasiga 20-asrning birinchi yarmida faylasuf S. Askoldov tomonidan kiritilgani ma'lum, olim bu tushunchaga turli millat vakillarining muloqotiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan kommunikativ jarayon sifatida baho beradi. [7]

Rus tilshunosligida konsept atamasi tadqiqi yuzasidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, Yu.S.Stepanov, V.Z.Demyankov, S.G.Vorkachev, D.S. Lixachev, Ye.S.Kubryakova, G.G.Slishkin, V.I. Karasik, Sergiyenko N.A., Shalgina Ye.A., Malchakitova N. Yu. kabi olimlarning tadqiqotlari shular jumlasidandir.

Qadimgi davr manbalar tilini o'rganish jarayonida o'sha davr tafakkuri, madaniyati, milliy dunyoqarashiga oid konseptlar ko'rgazmali obrazlar, aniq tushunchalar yoki belgilar ko'rinishida ekanligi ma'lum bo'ldi.[5]

Ye. S. Kubryakova "konsept" terminini psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlarini qamrab olgan "soyabon"ga o'xshatadi.[10,11].

V.I.Karasik konseptning predmetga oid, belgiga oid, hodisa-jarayonga oid xususiyatlarini, keyingi yondashuvda kognitiv psixologik jihati, ya'ni bunda ma'no fragmentlari ssenariy, freym, geshtalt kabi qiyofalarga tegishli ekanligi, uchinchi yondashuv esa etik-estetik kategoriyalarning mahsuli sifatida deriktiv xususiyatga ega bo'lgan madaniy qadriyatlarni baholovchi kabi necha tipologik yondashuvlarda belgilab beradi [16].

Asosiy hissiy tushunchalar ya'ni konseptlar ("qo'rquv", "quvonch", "qayg'u", "g'azab") N. A. Krasavskiyning monografiyasida tahlil qilingan (2001).[12]

O'zbek tilshunosligida ham "konsept" lingvokulturologiyaning yetakchi mavzusi sifatida aktuallashti. Sh.Safarovning "Kognitiv tilshunoslik" nomli risolasida konseptni "moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet- hodisalar haqida tushunchaning tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna- konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi" deb izohlaydi. [4]

Sh. Usmonova o'zining "Lingvokulturologiya" darsligida lingvomadaniy konseptga quyidagicha ta'rif beradi: "Madaniy konsept - mavhum tushunchalarning nomlari bo'lgani uchun bu yerda madaniy informatsiya signifikatga, ya'ni tushuncha yadrosiga biriktiriladi" [7].

N. S Sayidrahimovning "Kognitiv tilshunoslikda "tushuncha" va "konsept", ularni tahlil qilish usullari" maqolasida tushuncha va so'z munosabatiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Tushuncha so'z va uning ma'nosisiz mavjud bo'lmaydi va, aksincha, so'z tushunchaning, fikrning ifodalovchisi hisoblanadi. So'z ma'nosi til kategoriyasi, tushuncha esa tafakkur kategoriyasi bo'lishi sababli ular bir-biridan farq qiladi." [5]

I.Tursunov "Konsept lingvomadaniyatning asosiy tushunchasi sifatida" nomli maqolasida "Konseptsiyani o'rganishda uning ikkita asosiy turini hisobga olish kerak."- deb ta'kidlaydi va birinchi turi tushunchaning asosiy xarakteristikasi - uning informativligidir ekanligi, ikkinchi turi tasviriylilik bilan tavsiflangan kontseptual tasvirga ajratadi. [6]

Lingvistik-madaniy kontseptsiya go'zallik murakkab aqliy shakllanishdir, uning majoziy-idrok komponenti chiroqli-chirkin prototip tasvirlarining to'plamidir.[13]

Tashqi ko'rinishning uning kontseptual tarkibiy qismi estetik baholash sanaladi. Dunyoni oqilona aks ettirilgan va hissiy jihatdan tajribali hissiy idrok etish, uning qiymat komponenti

go'zallikni hayotning eng yuqori ma'noli yo'nalishlaridan biri va natijada paydo bo'ladigan xatti-harakatlarning ustuvorligi tizimi sifatida tan olish bilan baholanadi.[13]

Masalan, turkiy til manbalari tilida *көркүлүг* so'zi ma'nosi go'zallik, chiroyga egalikni ifodalovchi sifatlar ichida "chiroyli, go'zal" ma'nosini tashuvchi sanaladi. Ushbu sifat leksema, shuningdek, Mahmud Koshg'ariy lug'atida (DLT, I, 336) hamda "Hibatul - haqoyiq"da ham qayd etilgan (DTS, 318). "Qisasi Rabg'uziy" tilida leksema *көркүлүг*: Havvá g'áyat *көркүлүг* erdi (7 v 13), XIV asr Xorazm manbalarida leksik birlikning *көркүлү* // *көркли* fonetik variantlari bilan bir qatorda iste'molda bo'lganligi ko'zga tashlanadi (SUYA, I, 627 - 628). Zikr etilgan ma'no qadimgi turkiy tilda, xususan, Turfon matnlari va "Oltun yoruq"da *көрклө* nisbiy sifati bilan anglashilgan (DTS, 318) [1].

Konsept haqidagi ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holatda quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

Qadimgi davr manbalar tilini o'rganish jarayonida o'sha davr tafakkuri, madaniyati, milliy dunyoqarashiga oid konseptlar ko'rgazmali obrazlar, aniq tushunchalar yoki belgilar ko'rinishida bo'lishi ma'lum bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдужаббарова Ф.А. "Қутадғу билиг"даги шахсга хос сифат лексемалар тадқиқи.Филол. фан. ном. ... дисс. –Тошкент, 2011. –Б.43.
2. Каримов Қ. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. –Тошкент: Бадиий адабиёт, 1971. -158 б.
3. Мардиев Т.К. "Бахт" концептининг лингвомаданий ва семантик талқини (инглиз ва ўзбек тиллари қиёсида) Хорижий филология. №4, 2016. В.25
4. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor,2006.- B.91
5. Sayidirahimova N. S. Kognitiv tilshunoslikda "tushuncha" va "konsept", ularni tahlil qilish usullari. Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2022, No 2 (43), 98-107 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online)
6. Tursunov I.Konsept lingvomadaniyatning asosiy tushunchasi sifatida.Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalasi: tahlil, tasnif, qiyos.mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferefsniya 2023-yil, 22-noyabr, B.78-
7. Usmonova Sh.Lingvokulturologiya. Darslik. Toshkent 2019.-B.43
8. Yusupov O'.Q-Ma'no,tushuncha, konsept va lingvokulturologiya atamalari xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari.- Toshkent,2011.-B49
9. Воркачев С.Г. Сопоставительная этносемантика теленомных концептов «любовь» и «счастье» (русско-английские параллели). -Волгоград: Перемена, 2003. -164с
10. Кубрякова, Е. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. — М., 2004. № 1. — С. 6–17.
11. Красавский Н.А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах:Монография. Волгоград:Перемена, 2001.495с
12. Мещерякова Ю.В. Концепт "красота" в английской и русской культурах //Языковая личность: проблемы лингвокультурологии и функциональной семантики: Сб. науч. тр. Волгоград: Перемена, 1999. С.209.
13. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. Воронеж: Истоки, 2001. 192 с
14. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. –М: Школа —Языки русской культуры, 1997. – 824 с.
15. Карасик В.И.. Языковой круг:личность, концепты, дискурс. Волгоград "Перемена"2002. -Ст 89